

О'QUV AMALIYOTI MASHG'ULOTLARINI O'TISHDA KO'RGAZMALI METODLARNI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI

Olimov Usmonali

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi,

Abdurahimova Shalola Vohidjon qizi

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi

Orifjonov Rasuljon

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi ta'lim ustasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, o'sib kelayotgan yoshlarga zamonaviy ta'lim berish hamda malakarini shakllantirish borasida ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Ushbu maqolada amaliy darslarni o'tishda ko'rgazma va namoyish metodlarining samarasi, ulardan foydalanish, usullari haqida so'z yuritilgan. Ushbu usullar syujetlar, voqea va hodisalar, shu jumladan ilmiy jarayonlar, tizimlar va mexanizmlarning ishlashi, shuningdek, alohida ob'ektlar - ularni o'rganish, batafsil ko'rib chiqish va muhokama qilish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Bu usulni qo'llashda kompyuter grafikasi, turli dasturlardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatib o'tilgan. .

Kalit so'zlar: Ko'rgazmalilik, zamonaviy pedagogika, namoyish usuli, Makromedia Flash MX dasturi, Power Point, Makromedia Authorware, kasbiy faoliyat, sog'lom tafakkur, boshqarish, tashabbuskorlik, faollik.

Ta'lim jarayonining sifati va boyligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga, moddiy-texnik bazasiga, o'qituvchining o'quvchilarning psixologik va intellektual darajasini tushunishiga, o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarining to'g'ri tuzilgan algoritmiga va to'g'ri tanlangan usullarga bog'liq bo'ladi.

O'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirish, aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini o'rganish ko'nikmalarini egallashni ta'minlaydigan tizimli o'zaro hamkorligidir.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishi – bu uning mutaxassis sifatida ongli ravishda o'zini-o'zi maqsadga yo'naltirilgan holda kasbiy rivojlantirish jarayonidir. Bu jarayon kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni, shaxsiy va kasbiy sifatlarini mustaqil takomillashtirishni o'z ichiga qamrab oladi va quyidagi tashkil etuvchilardan iboratdir:

- shaxsiy sifatlarni kamol toptirish;
- intellektual rivojlanish;
- kasbiy rivojlanish;
- jismoniy komillik.

Yoshlarimiz o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun qator zarur sifatlarga ega bo'lishi kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- kasbiy masalalarni yechishga ichki motivatsiyani shakllantirish;
- kasbiy masalalarni yechish jarayonida yuqori natijalarga erishishga intilish;
- kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmunini tushunish va metodik asoslarini bilish. O'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish usullaridan biri bu ishlab chiqarish amaliyotlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy maqsadi kichik mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va malakalarini oshirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish usullaridan biri bu ishlab chiqarish amaliyotlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish amaliyotining asosiy maqsadi kichik mutaxassislarni kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish va malakalarini oshirishdan iborat bo'ladi.

Amaliyotchining kasbiy faoliyati maydonini yanada to'la tavsiflaydigan bilim va ko'nikmalar hajmini shakllantirish zarur deb tasavvur qilinadi. Amalda birlamchi kasbiy malakalarni hosil qilish uchun bunday maydon ish o'rni bo'ladi. Binobarin, amaliyotning asosiy vazifasi amaliyotchida ish o'rni, unda ishni tashkil etish, mazkur ish o'rning boshqalari bilan o'zaro aloqasi, uning ishlab chiqarishning umumiy tuzilmadagi o'rni to'g'risida to'liq tasavvur yaratish bo'lishi kerak. Bu masalalar amaliy malakalarni o'zlashtirishdan ko'ra ancha keng ekanligi ko'rinadi. Kasbga tayyorlashning juda muhim jihatlaridan biri amaliyotchining ish o'rni uchun xos bo'lgan barcha faoliyat turlariga kiritilganligi va albatta ulardan xabardorligi amaliyotchining asosiy vazifalari va rollarini o'zlashtirganligi hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogikada moddiy-texnika bazasining rivojlanishi va ta'lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari mavjudligi sababli o'qitishning ko'rgazmali usuli ancha samarali hisoblanadi.

Ko'rgazmalilik - o'quvchilarga dinamik tasvirlarni vizual tarzda taqdim etishga asoslangan o'qitish usulidir. Ushbu usul syujetlar, voqea va hodisalar, shu jumladan ilmiy jarayonlar, tizimlar va mexanizmlarning ishlashi, shuningdek, alohida ob'ektlar - ularni o'rganish, batafsil ko'rib chiqish va muhokama qilish maqsadida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu usulning samaradorligi juda yuqori, chunki taqdim etilgan o'quv materiallari vaqt, dinamika va makonda namoyon bo'ladi, bu har tomonlama ko'rib chiqishga, ob'ektning alohida elementlarining turli xil xususiyatlarini, bog'lanishlari va o'zaro ta'sirini aniqlashga, uni talabalar tomonidan maksimal darajada tushunishga yordam beradi. Bilishning hissiy empirik asosi muhiti o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, uni fikrlash jarayoniga jalb qiladi, materialni o'zlashtirish jarayonini psixologik jihatdan osonlashtiradi.

Namoyish usulini qo'llash jarayonida bir qator shartlarga rioya qilish kerak.

1. Foydalanilayotgan material o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi kerak.
2. Namoyish qilinadigan material oqilona miqdorlangan bo'lishi va dars uchun rejalashtirilgan o'quv dasturi davomida xronologik tartibda taqdim etilishi kerak.

3. Namoyishni shunday tashkil qilish kerakki, har bir o`quvchi o`qituvchi taklif qilgan o`quv materialini erkin va to`liq idrok etish imkoniyatiga ega bo`lsin.

4. Namoyish bilan birga keladigan tushuntirishlar haqida yaxshilab o`ylab ko`ring.

5. Ko`rsatishda asosiy narsani ta`kidlashni unutmang.

6. Materialni namoyish qilish jarayonida talabalarni faol faoliyatga jalb qilishning bir qancha mumkin bo`lgan yondashuvlarini tanlang.

7. Ko`rsatilayotgan o`quv ko`rgazmali materiallarni o`zlashtirib olishda o`quvchilarning faol ishlashi uchun sharoit yaratish (munozara, tahlil, savollarga javob).

O`qitish usuli sifatida ko`rsatishning afzalligi o`rganilayotgan ob'ektlarni ochish dinamikasidadir. Ko`rgazmali metod turli xil bilim ob'ektlarini o`rganish jarayonida keng qo`llaniladi. Ammo bu usulning maksimal samarasi hodisalarni, jarayonlarni, ob'ektlarni mustaqil o`rganish bilan erishiladi. Talabalar mustaqil ravishda zarur harakatlarni amalga oshirganda, bog`liqlik va qonuniyatlarni aniqlasa, faol bilish jarayoni sodir bo`ladi - hodisalar va narsalar ular tomonidan idrok qilinadi va tayyor bilim va g'oyalar sifatida qabul qilinmaydi.

Ko`rgazmali metodning kamchiliklaridan biri uning o`qitishning zarur moddiy-texnik vositalarining mavjudligida, o`qituvchi tomonidan qo`llaniladigan ko`rgazmali materiallarning sifatiga kuchli bog`liqligidir.

Ta`lim tizimida multimediali electron o`quv adabiyotlar, ma`ruzalar, virtual laboratoriya ishlari, animatsion ko`rgazmalar o`quvchilarning kasb sirlarini egallashlarida, yetarli bilim va ko`nikmaga ega bo`lishlarida yordam beradi. Bunday dars ishlanmalarini yaratishda foydalaniladigan maxsus dasturlar mavjud bo`lib, animatsion roliklar yaratishda Makromedia Flash MX dasturidan, multimediali taqdimot ma`ruzalarini yaratishda hammamizga ma`lum bo`lgan Power Point va Makromedia Authorware dasturlaridan foydalaniladi.

Kasb-hunar maktablarida maxsus fanlarni o`qitishda, o`quv amaliyotimashg`ulotlarida o`quvchilarning ko`nikma va malakalarini sakllantirishda animatsion ishlanmalar, video darslar juda yaxshi samara beradi. Masalan o`quv amaliyoti mashg`ulotlarida kirish yo`riqnomasida turli xildagi cho`ntaklarni tikish jarayoni, yoqa tayyorlash jarayonlari, yenglarni tayyorlash jarayonlarini o`quvchilarga tushuntirishda oldindan tikish jarayonini videoga olib, Sound Forge va Adobe Premier dasturlarida tahrirlab, so`ng dars jarayonida o`quvchilarga namoish etish mumkin. Ta`lim jarayonida kompyuter va axborot texnologiyalarning qo`llanilishi natijasida muhim yutuqlarga erishish mumkin, ya`ni: -Har bir o`qituvchinig o`ziga xos darsni tushuntirish uslubiyoti mavjud. -Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish ular ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

-Yangicha texnologiyalar tig`iz bilimlarni o`zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diogrammalarga keng o`rin beriladi. Bu narsa

yoshlar obrazli xotirasini yanada jonlantiradi va eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi.

-Ushbu ma'lumotlarni tashqi xotira vositalariga yozib olish va xohlagan vaqtda ulardan foydalanish mumkin.

- Bu noanaviy dars usulida o'quvchi o'quv materialini tez o'zlashtiradi va o'quvchi tushunmagan hollarda jarayonini qayta ko'rish imkoniyati tug'iladi.

Bugungi kunda professional ta'lim tizimida ham bir qancha muammolar va kamchiliklar mavjud bo'lib bulardan biri, o'quv xonalarida texnika vositalarining yetishmasligi va professional tarzda ishlab chiqilgan ko'rgazmali materiallar yo'qligidadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rashidov X va boshqalar "Kasbiy pedagogika" blokini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) Toshkent 2007-yil.
2. N.Xo'jaev va boshqalar. Kasbiy ta'lim metodikasi.O'quv qo'llanma.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2007.
- 3.Abduquddusov O. A, Rashidov x. f. "Kasb-hunar pedagogikasi" Toshkent-2009-yil
- 4.Sh.Razzoqov, Sh. Yo'ldoshev, U.Ibragimov "Kompyuter grafikasi" T. Talqin" 2012 y
- 5.Sh.A.Nazirov,F.M.NuraliyevP.Sh.Ayitmuradov "Rastr va vector grafikasi" T."Gafur Gulom".2007 yil
6. U.Yu.Yuldashev,R.R.Boqiyev, F.M.Zokirova "Informatika" T."Gafur Gulom".2002y